



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 19-mart

132-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 14-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shaharsozlik faoliyatini ruxsat berish tartib-taomillarini takomillashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” 2023-yil 23-noyabrdagi 619-son qaroriga o‘zgartirish kiritish haqida” 2025-yil 24-fevraldagi 110-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 129-6-0-Q/25-sonli qarori haqida

“Shaharsozlik faoliyatini ruxsat berish tartib-taomillarini takomillashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-fevraldagi 110-son qarori hamda Namangan viloyat hokimining 2025-yil 14-martdagi 129-6-0-Q/25-son qarorini tumanda ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 14-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shaharsozlik faoliyatini ruxsat berish tartib-taomillarini takomillashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” 2023-yil 23-noyabrdagi 619-son qaroriga o‘zgartirish kiritish haqida” 2025-yil 24-fevraldagi 110-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 129-6-0-Q/25-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

Vazirlar Mahkamasining “Shaharsozlik faoliyatida ruxsat berish tartib-taomillarini takomillashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” 2023-yil 23-noyabrdagi 619-son qaroriga o‘zgartirish kiritish haqida” 2024-yil 11-noyabrdagi 326-son qaroriga asosan obyektlarni hududiy inspeksiya ro‘yxatidan o‘tkazish hamda shu asosda foydalanishga ruxsat berish ishlari 2024-yil 31-dekabrga qadar uzaytirilganligi;

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining obyektlar loyihalarini belgilangan tartibda kelishmasdan va hududiy inspeksiya ro‘yxatidan o‘tkazmasdan, qurilish-montaj ishlari bajarilgan (qisman yoki to‘liq) bino va inshootlar bo‘yicha tegishli

hujjatlarni rasmiylashtirish va hududiy inspeksiyalar ro'yxatidan o'tkazish hamda shu asosda foydalanishga ruxsat berish ishlarini 2025-yil 1-iyulga qadar uzaytirish to'g'risidagi taklifi ma'qullanganligi;

Vazirlar Mahkamasining "Shaharsozlik faoliyatida ruxsat berish tartib-taomillarini takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida" 2023-yil 23-noyabrda 619-son qarorining 2-bandidagi "2024-yil 1-dekabrda" so'zlari "2025-yil 1-iyulda" so'zlari bilan almashtirilganligi e'tiborga olinsin.

3. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (A.Xudoyberdiyev) manfaatdor idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-fevralda 110-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tegishli tuman hokimining o'rinbosarlari zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov